

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10897314>

UDK. 636.5: 636.084: 636.086:

ARPA YORMASINING BROYLER JO‘JALARINI O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI

Xursandova.D

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filali magistri,

Yangiboyev.A.E

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filali dotsenti
e-mail: XursandovaD1994@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biz hozirgi vaqtda broyler jo‘jalarini o‘shish va rivojlanishiga ozuqa maqsadlariga sarflanadigan donning ekologik xavfsiz ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lgan parranda parhezlar uchun eng maqbul nisbatni ko‘rib chiqdik arpa, makkajo‘xori, jo‘xori, bug‘doy, dukkakli ekinlar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlari: Parranda, ozuqa, arpa yormasi, broyler jo‘jalari.

ABSTRACT

In this article, we have considered the most optimal ratio for economically profitable poultry diets of environmentally safe production of grains used for the growth and development of broiler chicks. it is described about the leguminous crops.

Key words: Poultry, feed, barley groats, broiler chicks.

KIRISH.

Ma‘lumki, Respublikamizda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirish borasida muayyan ishlar tizimli tartibda amalga oshirilmoqda. Parrandachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab quvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2022 yil 25 yanvarda qabul qilingan PQ-100-sonli qarori. Ichki iste‘mol bozorini parranda go‘shiti bilan barqaror ta‘minlash hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish

maqsadida va 2006-2011 yillarda chorvachilikni rivojlantirishga mo'ljallangan davlat dasturlarining qabul qilinishi chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik soxalarini rivojlanishini ta'minladi.

Xalqimiz parrandachilikni "Yetti xazinaning biri" deb bejiz aytishmagan.

Chunki biroz diqqat – e'tibor, ishtiyoq, mehr bilan parrandani parvarishlashga kirishsangiz, ko'p fursat o'tmay tuxum va parranda go'shtidek taniq taomlar xom ashyosiga ega bo'lasiz. Parrandaning keng tarqalishiga sabab yil davomida uning ko'p miqdorda tuxum berishi va go'shtga tez fursatda etilishidir. Jahon chorvachilik sohasining rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, chorvachilikda go'sht ishlab chiqarish bo'yicha boshqa hayvonlar turiga qaraganda parranda go'shtini ishlab chiqarish jadallik bilan rivojlanmoqda. Broylar jo'jalarining jadal o'sishi va sarflangan ozuqalarga nisbatan yuqori sifatli arzon go'sht etishtirish, qisqa vaqt ichida qilingan xarajatlarning qoplanishi hamda aholining parhez parranda go'shtiga bo'lgan talabining oshishi sababli parrandachilikka qiziqish tobora ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tuxum yo'nalishidagi parrandalarning hozirgi kunda zamonaviy krosslaridan Lomann (Germaniya), Xayseks, Bovans (Gollandiya), Xay-Layn (AQSH) va Rodonit-3 (Rossiya) zotlari ma'lum. O'zbekistonga 1992 yilda Germaniyaning parranda zotlari keltirilgan bo'lib, hozirgi kunda Respublika bozorlarining 70 foizini tashkil etadi. Lomann Braun (jigarrang), Lomann LSL Oq (oq rang) va Lomann Sendi (och kulrang) krosslari Samarqand viloyatidagi "Agalik – Lomann parranda" QK va Toshkent viloyatidagi "Lomann – Ishonch – Nadejda" QK larida etishtirilmoqda. Bu krosslar yosh parrandalarining saqlanishi (soxrannost) 99-99,5 foizni, ona tovuqlar saqlanishi 94-95 foizni, mahsuldorligi 95 foizgacha boradi. Tovular uy sharoitida bir yilda 270 donagacha, sanoat parrandachiligida 330 donagacha tuxum berishi mumkin.

Parrandachilikda parrandaning zoti, yoshi, vazni, mahsuldorligini inobatga olinib to'yimli ozuqalar bilan boqish katta ahamiyatga ega. Buning uchun ozuqa tarkibiga vitaminli –mineral premiksleri, aminokislotalar, fermentlar, probiotiklar va boshqalar ozuqa qo'shimchalari talab etilgan me'yorlarda qo'shiladi. Parranda yuqumli kasalliklarini oldini olish maqsadida vaksina va antibiotiklar qo'llaniladi. O'zbekiston sharoitida xavfli xisoblangan yuqumli kasalliklardan Psevdochuma (Nyukasl kasalligi), Infekcion bronxit, Infekcion laringotraxeit, Marek va Gamboro kasalliklari, Chechak (ospa), Mikoplazmoz va Salmonellyozlarga qarshi profilaktik ishlar doimiy ravishda olib boriladi.

NATIJALAR.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda mamlakatimizda chorvachilikning turli xil tarkmoqlarini to'yimli ozuqa va ozuqa qo'shimchalari bilan ta'minlash muammosi haligacha saqlanib qolmoqda.

Ushbu muammoni hal etish uchun noananaviy ozuqa manbalarini izlab topish va ulardan foydalanishni amaliyotga keng joriy etish zamonaviy biotexnologiya fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

Bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilgan holda hozirgi vaqtda parrandachilik sanoatida bug'doy va arpa tipidagi aralash ozuqalar qo'llaniladi, shuning uchun ularning kaloriya miqdorini oshirish masalasi. Ko'p fermentli tarkib bilan boyitilgan ozuqa aralashmasining ularga nisbatan strategik ahamiyatga ega ob'ekt sifatida qarash lozimligini ko'rsatadi.

Zamonaviy dunyoda atrof-muhit parametrlari nazorat qilinadigan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan yuqori sifatli dehqon mahsulotlariga talab kundankunga ortib bormoqda. Ekologik xavfsiz ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan foydali ishlab chiqarish usuli bo'lib, har yili dunyoning ko'plab mamlakatlarida ushbu ishlab chiqarish tizimiga o'tadigan fermer xo'jaliklari soni ortib bormoqda. O'zbekistonda kichik fermer xo'jaliklarida ushbu turdagi ishlab chiqarishni malakali rejalashtirish bir kunlik ko'p mantiqiy va ijtimoiy muammolarni hal qilib, qishloqning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga imkon berdi. Ma'lumki, parranda ozuqasining asosiy manbai don hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ozuqa maqsadlariga sarflanadigan donning umumiy hajmida arpa ulushi 15%, makkajo'xori ulushi 35 %; yulaf - 3 %; bug'doy — 25 %; dukkakli ekinlar - 16 %.

MUHOKAMA.

Fermentlar-bu hayvon va o'simlik organizmida sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalarni ko'p marta tezlashtirishning noyob qobiliyatiga ega bo'lgan oqsil molekullari guruhi. Don parranda parhezining asosiy tarkibiy qismidir. Arpa va jo'xori, makkajo'xori bilan almashtirish ozuqa narxini pasaytiradi, ayniqsa broyler dietasida. Biroq, murakkab uglevodlar va kam energiya bilan oziqlanish ulardan foydalanishni cheklaydi. Ular kraxmalli bo'lmagan polisakkaridlar bilan mashhur va oziqlanishga qarshi xususiyatlarga ega. Kraxmalli bo'lmagan polisakkaridlar ozuqaning yopishqoqligini oshiradi, bu ozuqa moddalarining hazm bo'lishini va oshqozon-ichak traktida so'rilishini kamaytiradi, shuning uchun ozuqaning energiya qiymatining pasayishiga va ozuqa konversiyasining yomonlashishiga olib keladi. Ko'p fermentli komplekslardan foydalanish bug'doyni arpa va yoki javdar bilan almashtirish tufayli parhez ovqatlanishidagi sezilarli o'zgarishlarni istisno qiladi.

Hozirgi vaqtda arpa-bug‘doy tipidagi aralash oзуqalarning oзуqaviy qiymatini yaxshilaydigan va javdar, jo‘xori, kepak va boshqa gidroliz qiyin bo‘lgan tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan ferment preparatlari va ularning komplekslari yaratildi.

XULOSA.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, parranda parhezlari uchun eng maqbul nisbat quyidagicha ko‘rib chiqilishi kerak: arpa - 5-15, makkajo‘xori - 35-40, jo‘xori - 5, bug‘doy - 25-30, dukkakli ekinlar - 16-20 %. Hozirgi vaqtda broyler jo‘jalarini o‘shirish va rivojlanishiga oзуqa maqsadlariga sarflanadigan donning umumiy hajmida arpa ulushi 29%, makkajo‘xori - 5%, jo‘xori - 3%, dukkakli ekinlar - 3%, bug‘doy va boshqa konsentrlangan oзуqalar - 60 %.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Mirziyoev Sh.M. «Parrandachilikni yanada chora- harakat qo‘shimcha» PQ-4015-son. Toshkent. 13.11.2018.*
2. *Ajiniyazov B.K., Xoshniyazova S.J., Sultonova Sh.F. “G‘O‘SHT YO‘NALISHIDAGI BROYLER JO‘JALAR UNUMDORLIGINI MAHALLIY O‘ZUQA ASOSIDA OSHIRISH” \ \ “Chorvachilik va nasilchilik ishi” ilmiy jurnali 3.25.2022 yil 29-31 betlar*
3. *Normuxumedov X.I., Raxmatullaev P.E. «Broler jo‘jalarni qayta ishlash tavsiyalar», T: 2014.*
4. *Usmonov, I. "QORAMOLLARNING ANOPOLOTSEFALYATOZLAR." AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI (2022): 403-406.*
5. *Xursandovna, Muhammadiyeva Shaxnoza. "QORAMOLLAR ANOPLLOTSEFALYATOZLARI (ADABIYOT TAHLILI)." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 14.5 (2023): 128-132.*
6. *Muhammadiyeva, Shaxnoza Xursandovna. "SAMARQAND VILOYATI SHAROITDA QORAMOLLAR MONIEZIOZNING EPIZOTOLOGIYASI." RESEARCH AND EDUCATION 1.9 (2022): 489-495.*